




## Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020-yil yanvar-may)

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqaradigan sanoat



D - Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash  
va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,  
chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 1 trln. 868,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi\* 107,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 88,6 % ni tashkil etdi.



## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 0,6 % ga pasayish kuzatildi.

Shuningdek, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 17,0 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda - 23,0 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 10,7 % ga o'sishi kuzatildi.

**\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.**



## Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi

Jami sanoat ishlab chiqarish  
hajmidagi ulushi, % da




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2020-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 84,7 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajming 4,5 % ini tashkil etdi.



## Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning shu davriga nisbatan ko'mir qazib olish - 13,7 % ga, chaqiq tosh - 2,0 m. ga hamda tabiiy qum - 65,8 % ga oshgan bo'lsa, neft qazib olish - 2,1 % ga, qattiq tuz (osh tuzidan tashqari) - 58,9 % ga pasaygan.




Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-may	2020-yil yanvar-may	Farqi +/-
Ko'mir, ming t.	70,4	80,1	9,7
Neft, ming t.	33,7	33,0	-0,7
<b>Qattiq tuz (osh tuzidan tashqari), ming t.</b>	<b>14,4</b>	<b>10,8</b>	<b>-3,4</b>
Qum, ming t.	15,4	25,6	10,2
<b>Chaqiq tosh, ming t.</b>	<b>27,5</b>	<b>57,5</b>	<b>30</b>




### Ishlab chiqaradigan sanoat

2020 yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 trln. 655,5 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 88,6 % ini tashkil etdi.



### Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da


O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni (2019 yil yanvar-may oylarida - 0,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 0,3 % (0,3 %), o'rta-quyi texnologiyali - 21,5 % (24,9 %) va quiyi texnologiyalisi - 66,6 % (61,4 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi - 5,5 % (2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 95,6 %), yog`och va po'kak buyumlar, pohol va to'qish uchun materiallardan buyumlar, qog`oz va qog`oz mahsulotlari va mebel ishlab chiqarish - 2,3 % (2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 105,6 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 46,6 % (2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 142,8 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 25,9 % (2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 74,3 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 0,4 % (2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 123,4 %) ni tashkil etdi.



## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagি mahsulotlarning o'sish sur'ati



2020-yilning yanvar-may oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 12,8 ming tonna paxta tolasi (2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan 2276,1 %), 13,6 ming tonna chakana savdo uchun qadoqlanmagan yigirilgan ip (105,5 %), 60,4 ming tonna un (127,9 %), 72,2 ming tonna portland-sement (0,0 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.




## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagи mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-may	2020-yil yanvar-may	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming t.	0,5	12,8	12,3
Tozalangan paxta yog'i, ming t.	4,0	4,5	0,5
Un, ming t.	47,2	60,4	13,2
Portlandsement, ming t.	0,0	72,2	72,2
Dizel yoqilg'isi, ming t.	4,6	1,7	-2,9
Qurilish uchun qorishmalar va aralashmalar, ming t.	2,0	5,5	3,5
Erkaklar yoki o'g'il bolalar uchun ishchi va kasbiy komplektlar va kostyumlar, kurtkalar va pidjaklar, ming dona	22	44	22,0



## **Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 102,4 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,5 % ini) tashkil etdi.

2020-yilning yanvar-may oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida gazsimon yoqilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 48,8 % ga oshganligi kuzatildi.



## **Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**


Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-may	2020-yil yanvar-may	Farqi +/-
<b>Elektroenergiya, mln.kVt/s</b>	1,3	0,004	-1,296
<b>Issiqlik energiyasi, ming gkal</b>	31,8	20,7	-11,1



## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'min-lash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 26,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,4 % ni) tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-may	2020-yil yanvar-may	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	1 045,8	1 445,1	399,3
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	10 485,1	9 433,5	-1051,6
Xavfsiz chiqindilarga butunlay yo'otish uchun ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	2 477,3	4 858,8	2381,5
Boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	4 859,8	7 136,5	2276,7

O'tgan yilning mos davriga nisbatan xavfsiz chiqindilarga butunlay yo'qotish uchun ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 96,1 % ga, boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar - 46,8 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 38,2 % ga oshganligi, suvgaga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar (90,0 %) kamayganligi kuzatildi.



### Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 688,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 1,8 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagagi ulushi 36,8 % ni tashkil etdi.



2019-yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2020-yil yanvar-may oylarida iste'-mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 52,7 % dan 57,4 % gacha ko'payganligi qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 2,6 % (2019-yil yanvar-may oylarida 4,5 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Termiz shahriga to'g'ri kelib, 21,0 % ni, shuningdek, Denov tumani 17,4 % ni, Sho'rchi tumani 16,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (101,8 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Termiz shahri (111,3 %), Qumqo'rg'on (162,8 %), Oltinsoy (109,3 %), Sho'rchi (106,5 %), Termiz (104,0 %), Qiziriq (103,0 %) tumanlarida qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2020-yilning yanvar-may oylarida)**

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>688,0</b>	<b>100,0</b>	<b>101,8</b>
<b>Termiz sh.</b>	<b>144,4</b>	<b>21,0</b>	<b>111,3</b>
tumanlar:			
<b>Angor</b>	<b>20,7</b>	<b>3,0</b>	<b>98,6</b>
<b>Bandixon</b>	<b>0,9</b>	<b>0,1</b>	<b>101,5</b>
<b>Boysun</b>	<b>19,7</b>	<b>2,9</b>	<b>101,0</b>
<b>Denov</b>	<b>120,0</b>	<b>17,4</b>	<b>85,8</b>
<b>Jarqo'rg'on</b>	<b>49,6</b>	<b>7,2</b>	<b>97,5</b>
<b>Qumqo'rg'on</b>	<b>36,2</b>	<b>5,3</b>	<b>162,8</b>
<b>Qiziriq</b>	<b>15,3</b>	<b>2,2</b>	<b>103,0</b>
<b>Muzrabot</b>	<b>12,6</b>	<b>1,8</b>	<b>101,5</b>
<b>Oltinsoy</b>	<b>28,2</b>	<b>4,1</b>	<b>109,3</b>
<b>Sariosiyo</b>	<b>29,4</b>	<b>4,3</b>	<b>99,3</b>
<b>Termiz</b>	<b>38,9</b>	<b>5,6</b>	<b>104,0</b>
<b>Uzun</b>	<b>22,0</b>	<b>3,2</b>	<b>100,9</b>
<b>Sherobod</b>	<b>37,1</b>	<b>5,4</b>	<b>85,0</b>
<b>Sho'rchi</b>	<b>113,1</b>	<b>16,4</b>	<b>106,5</b>



**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar  
tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 439,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 23,5 % ni tashkil etdi.




### **Surxondaryo viloyat hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

	<b>2020-yil yanvar-may mldr. so'm</b>	<b>Fizik hajm indeksi, % da</b>
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>1868,7</b>	<b>107,1</b>
<b>Termiz sh.</b>	<b>349,8</b>	<b>107,8</b>
tumanlar:		
<b>Angor</b>	<b>39,0</b>	<b>104,8</b>
<b>Bandixon</b>	<b>0,8</b>	<b>60,5</b>
<b>Boysun</b>	<b>29,5</b>	<b>102,0</b>
<b>Denov</b>	<b>207,2</b>	<b>145,0</b>
<b>Jarqo'rg'on</b>	<b>349,9</b>	<b>94,9</b>
<b>Qumqo'rg'on</b>	<b>186,3</b>	<b>247,2</b>
<b>Qiziriq</b>	<b>64,9</b>	<b>103,3</b>
<b>Muzrabot</b>	<b>62,0</b>	<b>172,0</b>
<b>Oltinsoy</b>	<b>31,7</b>	<b>100,7</b>
<b>Sariosiyo</b>	<b>166,4</b>	<b>101,7</b>
<b>Termiz</b>	<b>46,9</b>	<b>90,7</b>
<b>Uzun</b>	<b>42,2</b>	<b>100,7</b>
<b>Sherobod</b>	<b>149,2</b>	<b>104,7</b>
<b>Sho'rchi</b>	<b>142,8</b>	<b>113,8</b>



**Surxondaryo viloyati hududlar kesimida ishlab  
chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari  
ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da**


Viloyat sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining kamayishiga, Bandixon (2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan 60,5 %), Jarqo'rg'on (94,9 %), Termiz (90,7 %) tumanida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada pasayganligi bilan izohlashimiz mumkin.



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Qumqo'rg'on (2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan 162,8 %), Oltinsoy (109,3 %), Shorchchi (106,5 %), Termiz (104,0 %), Qiziriq (103,0 %) tumanlarida hamda Termiz shahrida (111,3 %) sezilarli darajada oshdi.



### **Surxondaryo viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da**



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Jarqo'rg'on (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 18,7 %), Denov (11,1 %), Qumqo'rg'on (10,0 %) tumanlari hamda Termiz shahri (18,7 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Bandixon (0,04 %), Boysun (1,6 %) hamda Oltinsoy (1,7 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Termiz shahri (1 942,3 ming so'm), Jarqo'rg'on (1 602,7 ming so'm), Sarosiyo (804,7 ming so'm), Qumqo'rg'on (788,8 ming so'm), Sherobod (770,3 ming so'm) tumanlarida, o'rtacha Viloyat darajasi ko'rsatkichidan (709,2 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 261,1 ming so'm bo'lgani holda, Termiz shahrida - 802,7 ming so'mni, Sho'rchi tumanida - 541,5 ming so'mni, Termiz tumanida - 502,7 ming so'mni, Denov tumanida - 311,2 ming so'mni, Jarqo'rg'on tumanida - 227,1 ming so'mni tashkil etdi.




**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari  
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish  
(2020-yil yanvar-may oylarida, ming so'm)**

	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>709,2</b>	<b>261,1</b>
<b>Termiz sh.</b>	<b>1942,3</b>	<b>802,0</b>
tumanlar:		
<b>Angor</b>	<b>294,3</b>	<b>156,4</b>
<b>Bandixon</b>	<b>11,4</b>	<b>11,9</b>
<b>Boysun</b>	<b>253,9</b>	<b>169,3</b>
<b>Denov</b>	<b>537,5</b>	<b>311,2</b>
<b>Jarqo'rg'on</b>	<b>1602,7</b>	<b>227,1</b>
<b>Qumqo'rg'on</b>	<b>788,8</b>	<b>153,2</b>
<b>Qiziriq</b>	<b>568,0</b>	<b>133,5</b>
<b>Muzrabot</b>	<b>437,9</b>	<b>88,9</b>
<b>Oltinsoy</b>	<b>179,2</b>	<b>159,6</b>
<b>Sariosiyo</b>	<b>804,7</b>	<b>142,4</b>
<b>Termiz</b>	<b>606,5</b>	<b>502,7</b>
<b>Uzun</b>	<b>241,6</b>	<b>125,9</b>
<b>Sherobod</b>	<b>770,3</b>	<b>191,6</b>
<b>Sho'rchi</b>	<b>683,7</b>	<b>541,5</b>



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda  
kichik biznesning ulushi  
(2020-yil yanvar-may oylarida, % da)**

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 744,1 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 39,2 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Bandixon, Uzun, Oltinsoy tumanlarida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Boysun tumanida (96,1 %), Termiz tumanida (91,0 %), Angor tumanida (87,5 %), Qiziriq tumanida (76,4 %) kuzatildi.


Viloyat hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Sherobod (22,5 %), Qumqoʻrgʼon (24,4 %), Shoʻrchi (25,3 %), Muzrabot (27,3 %) hamda Jarqoʻrgʼon (28,9 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



**Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi  
tashkil etilgan sanoat korxonalari  
(2020-yil 1-iyun holatiga koʻra)**

Bugungi kunda viloyatda 3378 ta sanoat korxonalari faoliyat koʻrsatmoqda, shundan 612 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiyligi) 14

sonining 18,1 % i) Termiz shahriga, 366 tasi (10,8 %) Denov tumaniga, 249 tasi (7,4 %) Qumqo'rg'on tumaniga to'gri kelmoqda.



2020-yil yanvar-may oylarida viloyatda 891 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 97 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 10,9 %) Termiz shahrida, 95 tasi (10,7 %) Denov tumanida, 95 tasi (10,7 %) Qumqo'rg'on tumanida, 87 tasi (9,8 %) Oltinsoy tumanida, 79 tasi (8,9 %) Sho'rchi tumanida tashkil etildi.

**Sanoat statistikasi  
bo'limi**  
Tel.: (76) 225-65-76